

Сайт: Инструкции «Призыва к совести» (<https://instructions.peaceplea.org>)

Оригинал статьи: <https://instructions.peaceplea.org/migrantam/prizyv-uz/>

Зеркало (без VPN): <https://storage.googleapis.com/peaceplea/sikr1t00>

Дата обновления: 11.01.2026

ПОДДЕРЖАТЬ НАС: <https://storage.googleapis.com/plmrph/yfv2wzej>

СКАЧАТЬ САЙТ В PDF: /documents/324/peaceplea_instructions.pdf

ГОРЯЧАЯ ЛИНИЯ В ТЕЛЕГРАМЕ: <https://t.me/agsnowarbot>

ГОРЯЧАЯ ЛИНИЯ В WHATSAPP: https://bit.ly/ags_whatsapp

ГОРЯЧАЯ ЛИНИЯ В ДЕЛЬТА ЧАТЕ: [https://i.delta.chat/
#FFC870521D836E7C964BE561B198D28D5117D942&a=agsnowarbot%40nine.testrun.org&n=%D0%9F%D1%80%D0%B](https://i.delta.chat/#FFC870521D836E7C964BE561B198D28D5117D942&a=agsnowarbot%40nine.testrun.org&n=%D0%9F%D1%80%D0%B)

ВСЕ СПОСОБЫ СВЯЗИ И КАНАЛЫ С НОВОСТЯМИ: <https://taplink.cc/agsnowar>

Muddatli xizmatga chaqiriq

Rossiya Federatsiyasi pasportiga ega erkaklarni muddatli xizmatga chaqirishi mumkin. Xizmat paytida yolg'on yoki bosim orqali shartnoma imzolanishiga erishishlari va urushga jo'natishlari mumkin.

18 yoshdan 30 yoshgacha odamlar chaqirilishi mumkin. Chaqiriqdan himoyalaniş kerak va hisobga armiyaga bormaslik huquqini tasdiqlaydigan dokumentlar bilan turish kerak.

Ozod qilinish va kechiktirish¶

Ikki va undan ortiq farzandi yoki uch yoshgacha bo'lgan nogiron farzandi bor shaxslar, kunduzgi ta'lim olayotganlar yoki ilmiy darajaga ega bo'lganlar harbiy xizmatni kechiktirish huquqiga ega. Shuningdek, sog'liq holati tufayli ozod qilish va kechiktirish imkoniyatlari mavjud. Barcha huquqlar "Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunning 23 va 24-moddalarida belgilangan.

Harbiy xizmatni muqobil xizmatga almashtirish huquqi¶

Har kimning harbiy xizmatni muqobil fuqarolik xizmatiga almashtirish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi bor. Muqobil xizmat - bu mehnat shartnomasi asosida ish haqi va ta'tillar bilan bajariladigan ish bo'lib, masalan, shifoxonada amalga oshiriladi.

Muqobil xizmatga e'tiqodi yoki dini harbiy xizmat bilan mos kelmaydigan shaxslar huquqlidir.

- Agar urushda qatnashishni noma'qul deb hisoblasangiz, tinchlikparvarlik yoki urushga qarshi qarashlar.
- Diniy e'tiqodlar - tinchlik, adolat va zo'ravonliksizlik tamoyillari.

Diniy tashkilot urushni qo'llab-quvvatlashi, harbiy harakatlarni ma'qullashi, qurollarni duo qilishi va urushga oq fotiha berishi mumkin, ammo dindor inson, hatto shu tashkilotga a'zo bo'lsa ham, rasmiy nuqtayi nazardan farq qiladigan o'z diniy e'tiqodlariga ega bo'lish huquqiga ega.

- Agar siz ilgari boshqa davlatga qasamyod qilgan bo'lsangiz va Rossiya Federatsiyasi armiyasida xizmat qilish bu qasamyod bilan axloqiy ziddiyatga kirsas.

Muqobil xizmat uchun ariza 1-oktyabrgacha (1-aprelgacha) tayyorlanishi va yuborilishi kerak, ammo muddatni o'tkazib yuborish mumkin. Ilgari ro'yxatda bo'lmaganligi va ro'yxatga olish uchun chaqiruv qog'ozi olmaganligi sababli avval ariza bermaganligini asoslab harbiy ro'yxatga olish paytida darhol ariza berish mumkin. Keyin sizga arizani ko'rib chiqish uchun komissiya tayinlanadi. Agar komissiya rad etsa, bu qarorga qarshi sudga shikoyat qilishingiz mumkin. Shikoyat qilish yo muqobil xizmatga erishishga yordam beradi, yoki sizni harbiy xizmatga chaqirilishdan himoya qiladi. Keyingi chaqiruv davrida esa arizani qaytadan topshirish imkoniyati bo'ladi.

Muqobil xizmatni tushunib olish va qanday qilib unga erishish borasida bizning saytimiz yordam beradi: agsnowar.info. Muqobil xizmatni rad etish yuzasidan nizolashish uchun sudga da'vo tayyorlash borasida – [@ne_poedu_bot](https://t.me/ne_poedu_bot) yordam beradi.

Muqobil xizmatga bo'lgan huquqlarni himoya qilishda, kechiktirish va ozod qilish bo'yicha tushuntirishlar va bepul yuridik yordam olish uchun Telegram messenjerida murojaat qiling: [@agsnowarbot](https://t.me/agsnowarbot).